

## References

1. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2015.
2. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
3. DADABAYEV, Z. (2024). TALABALARGA INGLIZ TILIDA SOHAGA OID MATNLARNI O‘QISHGA O‘RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI. «ACTA NUUZ», 1(1.9), 73-75.
4. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press, 2000.
5. Chapelle, C. A. Computer Applications in Second Language Acquisition. Cambridge University Press, 2001.
6. Farmonov, A., Dadabaev, Z., Qosimova, G., Juramurodov, D., Nishonova, D., Boboyev, S., & Tursunov, Q. (2026). Genome-Wide Insights into The Role of Genetic Variability in Linguistic and Cognitive Functions. Genetics and Molecular Research, 25(1).
7. Warschauer, M. Technology and Social Inclusion. MIT Press, 2003.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISHDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

***Xoshimova Oydia Shuhrat qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası  
o‘qituvchisi*

*Tel: +998995158444 E-mail: [oydinakhoshimova@gmail.com](mailto:oydinakhoshimova@gmail.com)*

***Nuriddinova Muslima Xayrullo qizi***

*Namangan davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi  
Tel: +998970500902 E-mail: [tursunovshodiyor585@gmail.com](mailto:tursunovshodiyor585@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning metodik tahlili va amaliy samaradorligi tadqiq etilgan. Maqolada 7–11 yoshdagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlari, ularning xorijiy tilni o‘zlashtirishdagi motivatsiyasi va o‘yin faoliyatining o‘quv jarayonidagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot davomida fonetik, leksik va grammatik o‘yinlarning turlari, “Total Physical Response” (TPR) metodi hamda zamonaviy multimedia o‘yinlarining dars unumdorligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, o‘yin texnologiyalari yordamida o‘quvchilarda til to‘siqlarini yengish, jamoaviy ishlash va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Boshlang‘ich sinf, ingliz tili, o‘yin texnologiyalari, didaktik o‘yinlar, motivatsiya, TPR metodi, kommunikativ kompetensiya, multimedia, interaktiv metodlar, nutqiy ko‘nikmalar.

**Abstract:** This article studies the methodological analysis and practical effectiveness of using game technologies in teaching English to primary school students. The article scientifically substantiates the psychophysiological characteristics of children aged 7–11, their motivation in mastering a foreign language, and the role of game activity in the learning process. The research covers the types of phonetic, lexical, and grammatical games, the “Total Physical Response” (TPR) method, and the impact of modern multimedia games on lesson productivity. Also, methodological recommendations are given on overcoming language barriers, developing teamwork, and communicative competence in students with the help of game technologies.

**Keywords:** Primary school, English, game technologies, didactic games, motivation, TPR method, communicative competence, multimedia, interactive methods, speech skills.

**Аннотация:** В данной статье исследуется методологический анализ и практическая эффективность использования игровых технологий в обучении английскому языку учащихся начальной школы. Статья научно обосновывает психофизиологические характеристики детей в возрасте 7–11 лет, их мотивацию к освоению иностранного языка и роль игровой деятельности в учебном процессе. Исследование охватывает типы фонетических, лексических и грамматических игр, метод «Полного физического реагирования» (ТФР), а также влияние современных мультимедийных игр на продуктивность уроков. Кроме того, даны методические рекомендации по преодолению языковых барьеров, развитию командной работы и коммуникативной компетентности учащихся с помощью игровых технологий.

**Ключевые слова:** Начальная школа, английский язык, игровые технологии, дидактические игры, мотивация, метод TPR, коммуникативная компетентность, мультимедиа, интерактивные методы, речевые навыки.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida chet tillarini o‘rganish, ayniqsa ingliz tilini boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘zlashtirish jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, ularning dunyoqarashi, diqqat markazi va xotira imkoniyatlari o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lib, bu davrda an’anaviy akademik dars o‘tish usullari kutilgan samarani bermasligi mumkin. Metodik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalarda yetakchi faoliyat turi o‘yin faoliyatidan

o‘quv faoliyatiga o‘tish bosqichida bo‘ladi, biroq o‘yin hali ham bolaning ruhiy dunyosida ustunlik qiladi. Shu sababli, ingliz tili darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish nafaqat darsning qiziqarliligini oshiradi, balki o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojini qondiradi va ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning eng samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** O‘yin texnologiyasi bu o‘quv jarayonini tashkil etishning shunday usuliki, unda ta’limiy maqsadlar o‘yin shaklidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchida darsga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni uyg‘otadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘yinining samaradorligi uning ko‘p funksiyaliligi bilan belgilanadi: u bir vaqtning o‘zida ham o‘rgatuvchi, ham rivojlantiruvchi, ham tarbiyalovchi, ham nazorat qiluvchi vazifalarni bajaradi. Pedagogik nuqtai nazardan, o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarni darsning passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan o‘yinlar mazmuniga ko‘ra fonetik, leksik, grammatik va nutqiy o‘yinlarga bo‘linadi. Fonetik o‘yinlarning maqsadi ingliz tili tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatish, artikulyatsiyani rivojlantirish va o‘quvchilarda fonematik eshitish qobiliyatini shakllantirishdir. Masalan, “Echo” (Aks-sado) o‘yinida o‘quvchilar o‘qituvchi aytgan so‘zlarni xuddi tog‘dagi aks-sado kabi past va baland ovozda takrorlaydilar, bu esa talaffuz ustida ishlashni zerikarli mashqdan quvnoq jarayonga aylantiradi[1].

Leksik o‘yinlar esa yangi so‘zlarni yod olish va ularni xotirada mustahkam saqlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, “Simon Says” (Saymon aytadi) kabi o‘yinlar orqali bolalar harakatlar va buyruqlarni ingliz tilida tezkorlik bilan o‘zlashtiradilar. Grammatik o‘yinlar murakkab strukturaviy qoidalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi, masalan, “Magic Bag” (Sehrli xalta) o‘yini orqali o‘quvchilar artikllar yoki predloglarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar. O‘yin texnologiyalarining yana bir muhim jihati bu “Total Physical Response” (TPR) metodi bilan integratsiyalashuvidir. Bola eshitgan inglizcha so‘zini harakat bilan bog‘laganda, uning miyasida kinetik va auditorial aloqalar mustahkamlanadi, bu esa tilni ongsiz ravishda o‘zlashtirishga olib keladi. O‘yinlar davomida o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladilar, xato qilishdan qo‘rqmaydilar, chunki o‘yin muhiti stress darajasini pasaytiradi va “til to‘sig‘ini” (language barrier) osonlik bilan yengib o‘tishga yordam beradi. Metodik tahlil shuni ko‘rsatadiki, darsning qaysi bosqichida o‘yin qo‘llanilishi uning samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi: darsning boshida o‘yin “warm-up” (chigal yozdi) vazifasini o‘tab, bolalarni ingliz tili muhitiga olib kirsam, darsning o‘rtasida charchoqni bosuvchi dinamik tanaffus bo‘lib xizmat

qiladi, dars yakunida esa o‘tilgan mavzuni mustahkamlovchi vosita bo‘ladi.

Zamonaviy multimedia vositalari va interaktiv o‘yinlar ham dars samaradorligini oshirishda katta rol o‘ynamoqda. “Kahoot”, “Quizizz” yoki “Wordwall” kabi platformalar orqali tashkil etilgan raqamli o‘yinlar bolalarda texnologik savodxonlikni oshirish bilan birga, ingliz tilidagi topshiriqlarni yuqori tezlikda bajarish ko‘nikmasini shakllantiradi. Biroq, o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchidan yuksak metodik mahorat talab etiladi. O‘yin shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi bo‘lib qolmasligi uchun uning qoidalari aniq belgilanishi, o‘yin maqsadi dars mavzusiga to‘liq mos kelishi va barcha o‘quvchilarning jalb qilinishi shart. O‘yin jarayonida o‘qituvchi boshqaruvchi va fasilitator rolini bajaradi, u o‘quvchilarning faolligini kuzatadi va ularni rag‘batlantirib boradi. Boshlang‘ich sinflarda “Role-play” (rolli o‘yinlar) o‘quvchilarning ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini o‘stiradi: do‘konda, shifoxonada yoki maktabda kechadigan muloqot sahnalari orqali bolalar real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishni o‘rganadilar. Metodik tadqiqotlar shuni isbotladiki, o‘yin orqali o‘rganilgan material an‘anaviy yodlash usuliga qaraganda o‘quvchi xotirasida uch barobar uzoqroq saqlanib qoladi. Buning sababi, o‘yin jarayonida bola nafaqat aqliy, balki hissiy (emotsional) jihatdan ham ishtirok etadi[2]. Quvonch, g‘alaba hayajoni yoki jamoaviy ruh kabi tuyg‘ular o‘rganilayotgan til birliklari bilan assotsiatsiya qilinadi. O‘yin texnologiyalarining yana bir samarali turi bu didaktik o‘yinlar bo‘lib, ular muayyan o‘quv masalasini yechishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, “Word Chain” (So‘zlar zanjiri) o‘yini so‘z boyligini oshirishga, “Find the Difference” (Farqni top) esa diqqatni jamlash va tasvirlash nutqini o‘stirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizualizatsiya juda muhim, shuning uchun barcha o‘yinlar rang-barang rasmlar, o‘yinchoqlar yoki real narsalar bilan ta‘minlanishi kerak. Metodik nuqtai nazardan, o‘yinlarni guruhlariga bo‘lib tashkil etish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega: bolalar bir-biriga yordam berishni, mas‘uliyatni his qilishni va o‘zaro hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar.

O‘yin davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ham aniqlashi mumkin ba‘zi bolalar yetakchilik qobiliyati bilan ajralib tursa, ba‘zilari ijodiy yondashuvi bilan darsni boyitadi. Ta‘kidlash joizki, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish dars intizomini buzmaydi, aksincha, bolalarning diqqatini qoidalarga bo‘ysunishga va topshiriqni aniq bajarishga yo‘naltiradi[3]. Agar o‘yin to‘g‘ri rejalashtirilgan bo‘lsa, hatto eng uyatchan yoki til o‘rganishda qiynalayotgan o‘quvchilar ham jarayonga qo‘shilib ketadilar. Ingliz tili darslarida musiqiy va harakatli o‘yinlarning (songs and action games) o‘rni beqiyosdir. “Head, Shoulders, Knees and Toes” kabi ashulalar orqali



bolalar inson tana a’zolarini hech qanday qiyinchiliksiz va zavq bilan yodlaydilar. Metodik tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar orqali ta’lim berish “Insonparvarlik pedagogikasi” tamoyillariga to‘liq mos keladi, chunki bunda o‘quvchi shaxsi markazga qo‘yiladi va uning qiziqishlari inobatga olinadi. O‘qituvchi o‘yin uchun material tanlashda o‘quvchilarning yashash muhiti, qiziqadigan multfilmlari yoki sevimli qahramonlaridan foydalanishi dars samaradorligini yanada oshiradi. O‘yin texnologiyalarining muvaffaqiyati ularning muntazamligida hamdir agar o‘yin darsning ajralmas qismiga aylansa, o‘quvchilarda ingliz tili darsiga nisbatan intizorlik va qiziqish paydo bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rgatishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bu shunchaki o‘ngay yo‘l emas, balki zamon talab qilayotgan fundamental metodik zaruriyatdir[2]. O‘yinlar orqali bolalar tilni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli muloqot vositasi sifatida qabul qiladilar. Bu esa kelgusida yuqori sinflarda tilni yanada chuqurroq o‘rganish uchun mustahkam poydevor yaratadi. O‘qituvchining ijodiy izlanishi, yangi-yangi o‘yin ssenariylarini ishlab chiqishi va ularni dars jarayoniga mahorat bilan tatbiq etishi o‘quvchilarning kelajakda komil va bilimli shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir dars o‘yin sehriga yo‘g‘rilgan bo‘lsa, o‘quvchi bilim olishdan charchamaydi, aksincha, yangi ma’lumotlarni katta shijoat bilan o‘zlashtiradi. Shu sababli, boshlang‘ich ta’lim metodikasida o‘yin texnologiyalarini takomillashtirish va ulardan keng foydalanish davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishning eng maqbul yo‘lidir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarini o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etish o‘quv jarayonining samaradorligini kafolatlovchi eng ustuvor metodik yondashuvdir. Metodik tahlillar shuni tasdiqladiki, o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga to‘la mos kelib, ulardagi tabiiy qiziquvchanlikni dars maqsadlariga yo‘naltirishga xizmat qiladi. O‘yin jarayonida o‘quvchi tilni majburiyat sifatida emas, balki jonli muloqot va quvonch manbai sifatida qabul qiladi, bu esa o‘z navbatida xorijiy tildagi nutqiy to‘siqlarni (language barrier) ongsiz ravishda yengib o‘tishga yordam beradi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan fonetik, leksik va grammatik o‘yinlar, shuningdek, TPR (jismoniy harakatlar) va multimedia texnologiyalari o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlab, egallangan bilimlarning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi uchun o‘yin texnologiyasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ularda jamoada ishlash va o‘zaro yordam ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi hamdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘yinlarning muvaffaqiyati ularning dars mavzusiga metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilinishi va izchilligiga

bog‘liq. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘yin elementlaridan unumli foydalanish kelgusida yuqori sinflarda ingliz tilini yanada chuqur o‘rganish uchun mustahkam poydevor va barqaror motivatsiya yaratadi. Shunday qilib, zamonaviy o‘qituvchining metodik portfelida o‘yin texnologiyalari markaziy o‘rinni egallashi, ta‘lim sifatini oshirish va barkamol avlodni shakllantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
- 2.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
- 3.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008
- 4.Xoshimova O. PRAGMATIC ASPECTS OF COLOR-EXPRESSING LEXEMES: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK // Journal of Advanced Linguistic Studies. – New Delhi, 2025. – Vol. 12. – № 2. – P. 1335–1350. ISSN: 2231-4075.
- 5.Xoshimova O. OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O‘RNI VA RANGLAR IFODASI //ИЖТИМОИЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – T. 5. – №. 2. – C. 332-338.
- 6.Xoshimova O. KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA LINGVORANGLI OLAM TUSHUNCHASI // Ilm sarchashmalari. – 2025. – Mart soni. – C. 33–35.

## **OLIY TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA‘LIM SIFATINI OSHIRISH**

***Rustamova Dilnoza Ozodovna***

*Urganch innovatsion universiteti*

*“Boshlang‘ich ta‘lim va psixologiya” kafedrası o‘qituvchisi*

+998914232757 [rustamovadilnoza7@gmail.com](mailto:rustamovadilnoza7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oliy ta‘lim bosqichida o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalaridan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada raqamli texnologiyalarning ta‘lim jarayonidagi o‘rni, ularning talabalar bilish faoliyatini oshirishdagi ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, darsda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning bir qancha usullari, tavsiya va tahlillar keltiriladi.